


59

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti rektori
X.B. Yunusov
2024-yil “01” 08



VETERINARIYA OFTALMOLOGIYASI

FANNING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800000	- Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	840000	- Veterinariya
Ta'lim yo'nalishi:	70840102	- Veterinariya jarrohligi

Samarqand 2024

Fan/modul kodi VO1306		O'quv yili 2025-2026	Semestr 3	ECTS – Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Veterinariya oftalmologiyasi	90		90	180
2.	I. Fanning mazmuni <p>Fanni o'qitishdan maqsad – magistr talabalarga qishloq xo'jalik hayvonlarida uchraydigan ko'z kasalliklariga qarshi amaliyot sharoitida profilaktik ishlarini bajarish, ko'z patologiyalarini o'rganish va ularni to'g'rilash, ko'z kasalliklarining etiologiyasi va patogenezini hisobga olgan holda zamonaviy davolash va profilaktika usullarini qo'llashni o'rgatish.</p> <p>Fanning vazifasi – hayvonlarda uchraydigan ko'z kasalliklarining kelib chiqish sabablarini aniqlash tamoyillarini ishlab chiqish va tavsiya qilish. Ko'zlari kasallangan hayvonlarda zamonaviy konservativ davolash va operatsiya usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya qilish hamda bu sohada malakali magistrnlarni tayyorlash, magistr talabalarning amaliy faoliyatida olgan bilim, ko'nikmalarini kasbiy faoliyatida qo'llay olishiga erishish.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Fanga kirish. Ko'z kasalliklari patogenezida oliy asab tizimining ahamiyati</p> <p>“Veterinariya oftalmologiyasi” fanining maqsadi va vazifalari. Veterinariya oftalmologiyasining rivojlanish etaplari. Ko'rish a'zo rivojlanishi. Ko'z kasalliklari patogenezida oliy asab tizimining ahamiyati.</p> <p>2-mavzu. Ko'z soqqasi va ximoya qiluvchi a'zolarining anatom-topografik tuzilishi</p> <p>Anatomik jihatdan ko'z soqqasining tuzilishi. Ko'zning ximoya qiluvchi a'zolari. Ko'z soqqasini harakatlantiruvchi a'zolar. Ko'z soqqasining tashqi pardalari tuzilishi. Ko'zning ichki muhitlari. Nur sindiruvchi muhitlar. Ko'rish-nerv apparati.</p> <p>3-mavzu. Ko'zni umumiy va maxsus tekshirish</p> <p>Hayvonning ko'rish qobiliyatini tekshirish. Ko'z yoshi yo'llarini tekshirish. Ko'z konyunktivasi va shox pardasidan olingan tamg'alarni tekshirish. Keratioskopiya. Purkinje-Sansonov tasvirlari.</p> <p>4-mavzu. Ko'zning ichki va nur sindiruvchi muhitlarini tekshirish</p>				

Oliy ta'limning 800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya bilim sohasining 70840102- Veterinariya jarrohligi mutaxassisligi uchun tayyorlangan "Veterinariya oftalmologiyasi" fanining o'quv dasturiga TAQRIZ

Respublikamizning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga mos ravishda qishloq xo'jaligi va veterinariya ilm-fanini raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida tahsil olayotgan magistrlar "Veterinariya oftalmologiyasi" fanidan qishloq xo'jalik hayvonlar ko'zlari kasalliklariga qarshi amaliyot sharoitida profilaktik ishlatilgan dori vositalari, ko'z patologiyalarini o'rganish va to'g'rilash, ko'z kasalliklarining etiologiyasi va patogenezini o'rganish bilan birgalikda, davolash va oldini olishni o'rganishdan iboratdir.

Fundamental fanlardan biri bo'lgan "Veterinariya oftalmologiyasi" - fani hayvonlarda uchraydigan ko'z kasalliklarining kelib chiqish sabablarini aniqlash, tamoyillarini ishlab chiqish va tavsiya qilish. Ko'zlari kasallangan hayvonlarda zamonaviy konservativ davolash va operatsiya usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya qilishni o'rgatadigan fandır.

Fanni o'rganish uchun ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlash uchun yetarli darajada soatlar ajratilgan bo'lib, chorvachilik va veterinariya amaliyoti va fani sohaslarining mutaxassisliklariga oid ulfakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir.

Dasturda fanning maqsadi va vazifalari: fan bo'yicha talabalarining tasavvuri, bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar: o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi: fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni bo'yicha uslubiy ko'rsalmalar berilgan.

Dasturda fanning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya darslari va mustaqil ta'limni tashkil etish uchun ko'rsalmalar, dars uchun kerak bo'ladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari alohida-alohida ifodalangan.

Dasturda ma'ruza va amaliy darslar, mustaqil mashg'ulotlarning mavzulari rejalashtirilgan soatlarga mos ravishda taqsimlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda "Veterinariya oftalmologiyasi" fanidan tayyorlangan ushbu dasturni hozirgi davr va mutaxassislik bo'yicha malaka talablariga javob beradi, deb hisoblayman. "Veterinariya oftalmologiyasi" fanining dasturini o'rnatilgan tartibda tasdiqlashga hamda o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etaman.

Samarqand viloyat hayvonlar kasalliklari
tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari
xavfsizligi davlat markazi direktori

Allamurodova M.M.

Refraksiyaning ilmiy asoslari. Akkomodatsiya. Monokulyar va binokulyar ko'rish. Oftalmoskop bilan tekshirish. O'tuvchi yorug'lik bilan ko'z gavharini va shishasimon tanani tekshirish. Ko'z tubini tekshirish.

5-mavzu. Veterinariya oftalmologiyasida qo'llanadigan diagnostik va dori vositalarining nazariy tavsifi

Veterinariya oftalmologiyasida qo'llanadigan vositalar to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Diagnostik vositalar. Qorachiqni toraytiruvchi va kengaytiruvchi vositalar. Ko'z tomchilari. Dorivor ko'z plyonkalari. To'qimali terapiya va biologik vositalar.

6-mavzu. Veterinariya oftalmologiyasida qo'llanadigan kuydiruvchi, burishtiruvchi va qotiruvchi vositalar. Sulfanilamidli va antibiotik vositalar

To'qimalarga qo'zg'atuvchi ta'sir etadigan vositalar. Antiseptik vositalar. To'qimalarga qo'zg'atuvchi ta'sir etadigan vositalar. Lizotsimoterapiya. Sulfanilamidli preparatlar. Antibiotik vositalar.

7-mavzu. Orbita sohasidagi shikastlanishlar

Orbita sohasidagi shikastlanishlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Ko'z orbitasi sohasidagi jarohatlar etiologiyasi, klinikasi, patogenezini. Ko'z orbitasi sohasidagi lat yeyishlar etiologiyasi, klinikasi, patogenezini. Ko'z orbitasi sohasidagi jarohatlar va lat yeyishlarni davolash. Orbita suyaklarining sinishi va yorilishlari.

8-mavzu. Orbita sohasidagi yiringli va yiringsiz kasalliklar

Ko'z orti (retrobulbar) flegmonasini davolashning nazariy asoslari. Orbita sohasidagi o'smalar. Orbita sohasidagi o'smalarni operativ davolashda Og'riqsizlantirish va to'qimalarni ajratish. Ko'z enukleatsiyasi.

9-mavzu. Ko'z yoshi apparati va qovoqlari kasalliklari

Ko'z yoshi bezining yallig'lanishi. Ko'z yoshi-burun kanalining torayishi, tiqilishi va bitib qolishi. Ko'z yoshi bezining ekstirpatsiya texnikasi. Ko'z qovoqlari chetlarining yopishishi. Yuqori qovog'i tushishi. Ko'z qovoqlari o'smalari.

10-mavzu. Ko'z qovoqlarining notabiiy holatlari

Qovoqlarning ichkariga qayrilishi. Qovoqlarning tashqariga qayrilishi. Kipriklarning noto'g'ri joylashishi - trixiiazis. Ko'z qovoqlari notabiiy holatlarini operativ va konservativ davolash.

11-mavzu. Ko'zning shox pardasi kasalliklari

Shox parda kasalliklarining umumiy tavsifi. Keratitlarning umumiy simptomatologiyasi. Yuzaki keratitlar. Chuqur stromal yiringli keratitlar. Uveal keratit. Shox pardani teshish usuli.

12-mavzu. Ko'z shox pardasining yallig'lanishsiz kechadigan kasalliklar

Ko'zning kserozi. Ko'zning keratokonusi. Ko'zning keratoglobusi. Ko'zning keratomalyatsiyasi. Ko'z shox pardasining yallig'lanishsiz kechadigan kasalliklarni davolash va oldini olish.

13-mavzu. Rangli va tomirli pardalar anomaliyalari

Rangli parda yallig'lanishining (irit) etiologiyasi, klinikasi, davolash. Kipriksimon tana yallig'lanishi. Tomirli traktning shikastlari. Tomirli traktning jarohatlari. Tomirli traktning shikastlari va jarohatlarini davolash.

14-mavzu. Tomirli traktning aseptik va yiringli kasalliklari

Aseptik yoki ekssudativ xorioiditlar etiologiyasi, klinikasi. Diffuz va xorioiditlarni davolash. Yiringli xorioiditlar etiologiyasi, klinikasi. Aseptik va yiringli xorioiditlarni davolash.

15-mavzu. To'r parda kasalliklari

To'r pardaga qon quyilishi. To'r parda yallig'lanishini ilmiy asoslangan davolash usullari. To'r parda yiringli yallig'lanishini davolash. To'r pardaning o'rnidan ko'chishi.

16-mavzu. Ko'z gavhari kasalliklari

Ko'z gavharining o'rnidan siljishi va chiqishi. Ko'z gavharining o'rnidan siljishi va chiqishida patologoanatomik o'zgarishlar. Ko'z gavharining xiralashishi-katarakta. Kataraktalarning tasniflanishi. Dissiziya operatsiyasi.

17-mavzu. Ko'zning shishasimon tanasi kasalliklari

Shishasimon tanaga qon quyilishi. Shishasimon tananing siljishi va tashqariga chiqishi. Shishasimon tananing xiralashishi. Shishasimon tana kasalliklarini davolash.

18-mavzu. Ko'rish nervi kasalliklari

Ko'rish nervi kasalliklarining umumiy tavsifi. Retrobulbar nevit. Intrabulbar nevit. Ko'rish nervining atrofiyasi. Ko'rish nervi kasalliklarini davolash va oldini olish tamoyillari.

19-mavzu. Ko'zning umumiy kasalliklari, ularning etiopatogenezi, davolash va oldini olish

Panoftalmit. Evisseratsiya operatsiyasi. Ko'z atrofiyasi. Yirik shohli hayvonlar tomirli traktning infeksiyali yallig'lanishi. Ko'zning vaqti-vaqti bilan kechadigan yallig'lanishi, uni davolashni ilmiy asoslash.

20-mavzu. Ko'z patologiyasini chaqiradigan asab tizimi va ichki yuqumsiz kasalliklari

Markaziy asab tizimi va ayrim bosh miya nervlari kasalliklari chaqiradigan ko'z patologiyasi. Bosh miya o'smalari chaqiradigan ko'z patologiyasi. Oglum kasalligi. Ko'zni harakatlantiruvchi (motor) nervlari chaqiradigan ko'z patologiyasi. Qon va qon hosil qiluvchi a'zolar kasalliklari chaqiradigan ko'z

Oliy ta'limning 800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya bilim sohasining 70840102- Veterinariya jarrohligi mutaxassisligi uchun tayyorlangan "Veterinariya oftalmologiyasi" fannining o'quv dasturiga

TAQRIZ

Respublikamizning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga mos ravishda qishloq xo'jaligi va veterinariya ilm-fani raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida tahsil olayotgan magistrlar "Veterinariya oftalmologiyasi" fanidan qishloq xo'jalik hayvonlar ko'zlari kasalliklariga qarshi amaliyot sharoitida profilaktik ishlarni bajarish, ko'z patologiyalarini o'rganish va to'g'rilash, ko'z kasalliklarining etiologiyasi va patogenezini o'rganish bilan birgalikda, davolash va oldini olishni o'rganishdan iboratdir.

Fundamental fanlardan biri bo'lgan "Veterinariya oftalmologiyasi" - fani hayvonlarda uchraydigan ko'z kasalliklarining kelib chiqish sabablarini aniqlash tamoyillarini ishlab chiqish va tavsiya qilish. Ko'zlari kasallangan hayvonlarda zamonaviy konservativ davolash va operatsiya usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya qilishni o'rgatadigan fandır.

Fanni o'rganish uchun ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlash uchun yetarli darajada soatlar ajratilgan bo'lib, chorvachilik va veterinariya amaliyoti va fani sohalarining mulaxassisliklariga oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir.

Dasturda fanning maqsadi va vazifalari: fan bo'yicha talabalarining tasavvuri, bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar: o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi: fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni bo'yicha uslubiy ko'rsalmalar berilgan.

Dasturda fanning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya darslari va mustaqil ta'limni tashkil etish uchun ko'rsatmalar, dars uchun kerak bo'ladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari alohida-alohida ifodalangan.

Dasturda ma'ruza va amaliy darslar, mustaqil mashg'ulotlarning mavzulari rejalashtirilgan soatlarga mos ravishda taqsimlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda "Veterinariya oftalmologiyasi" fanidan tayyorlangan ushbu dasturni hozirgi davr va mutaxassislik bo'yicha malaka talablariga javob beradi, deb hisoblayman. "Veterinariya oftalmologiyasi" fanining dasturini o'rnatilgan tanibda tasdiqlashga hamda o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etaman.

Veterinariya ilmiy tadqiqot
instituti direktori, v.f.d.

Elmurodov B.A.

	<p>sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish. O'quv qullanma. Toshkent, "Ma'naviyat" NMIU, 2021 yil. – 280 bet.</p> <p>2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.</p> <p>3. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.</p> <p>4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.</p> <p>5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.</p> <p>6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.</p> <p>Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www. Ziyonet.uz 2. www.veterinariya.medsinasi.uz 3. www.sea@mail.net21.ru 4. www.veterinary@actavis.ru
8.	Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "2"-avgustdagi "12-sonli bayoni bilan maqullangan.
9.	<p>Fan modul uchun mas'ullar:</p> <p>Tashtemirov R.M. – SamDVMCHBU, "Veterinariya jarrohligi va akusherlik" kafedrası professori, v.f.n.</p> <p>Abdiyev S.B. – SamDVMCHBU, "Veterinariya jarrohligi va akusherlik" kafedrası kata o'qituvchi</p> <p>Haydarova S.A. – SamDVMCHBU, "Veterinariya jarrohligi va akusherlik" kafedrası assistenti, v.f.f.d</p> <p>Ravshanov M.A. – SamDVMCHBU "Veterinariya jarrohligi va akusherlik" kafedrası assistenti, v.f.f.d.</p>
10.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>1. Allamurodova M.M. - Samarqand viloyat hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi direktori.</p> <p>2. Elmurodov B.A. - Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti direktori, v.f.f.d.</p>

patologiyasi. Modda almashinuvi kasalliklari. enterit, sil, kartsinomatoz, sarkomatoz, nefrit, avitaminoz chaqiradigan ko'z patologiyasi. Zaharlanishlar chaqiradigan ko'z patologiyasi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ot va qoramollar ko'zlarining tashqi tuzilishi.
2. Ko'zning ichki muhitlari tuzilishi.
3. Ko'zning yordamchi – himoya apparati tuzilishi.
4. Ko'zning refraksiya va akkomodasiyasini o'rganish.
5. Ko'rish qobiliyatini tekshirish.
6. Ko'z kon'yunktivasi va shox pardasidan olingan tamg'alarni tekshirish.
7. Ko'z shox pardasidan olingan tamg'alarni tekshirish.
8. Ko'zni maxsus asboblarda yordamida tekshirish.
9. O'tuvchi yorug'lik bilan ko'z gavharini va shishasimon tanani tekshirish.
10. Ko'z tubini tekshirish.
11. Uy hayvonlar ko'z tubining tabiiy ko'rinishi.
12. Shox pardani teshish.
13. Enukleatsiya, evisserasiya va ekzenteratsiya usullarini qo'llash
14. Kataraktani ekstraksiya qilish.
15. Iridektomiya.
16. Orbita sohasidagi jarohatlar va lat yeyishlarni davolash tartibi.
17. Ko'z sohasidagi lat yeyishlarni davolash tartibi.
18. Ko'z orti flegmonasini davolash.
19. Yuqori qovoqning tushib qolishini davolash.
20. Qovoqlarning ichkariga va tashqariga qayrilishini davolash.
21. Ko'z yoshi bezi yallig'lanishi va ko'z yoshi – burun kanalining torayishi.
22. Ko'z yoshi – burun kanalining torayishi, tiqilishini davolash.
23. Chuqur (stromal) yiringli keratitni operativ davolash.
24. Chuqur (stromal) yiringli keratitni konservativ davolash.
25. Uveal keratitni davolash.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Orbita suyaklari kasalliklari.
2. Orbita yumshoq to'qimalari kasalliklari.
3. Ko'z sohasidagi teri kasalliklari.
4. Infekcion konyunktivitlar.
5. Invazion konyunktivitlar.
6. Yoppasiga uchraydigan ko'z kasalliklari.
7. Infekcion keratitlar.
8. Invazion keratitlar.
9. Sport otlarining ko'z kasalliklari.
10. Etiologiyasi noaniq ko'z kasalliklari.

	<p>11.Kataraktalar va ularning tasnifi.</p> <p>12.Ko'z qovoq kasalliklari</p> <p>13.Ko'z yosh apparati kasallilari</p> <p>14.Kipriklar kasalliklari</p> <p>15.Parazitar ko'z kasalliklari</p> <p>16.Ko'z kasalliklarini davolashda ishlatiladigan jihozlar</p> <p>17.Ko'rish qobiliyatini kuchaytiruvchi vitaminlar</p> <p>18.Saqlash sharoitining ko'z kasalliklari kelib chiqishidagi roli</p> <p>19.Ko'z qon tomir kasalliklari</p> <p>20.Vitamin almashinuvi buzilishidan kelib chiqadigan ko'z kasalliklari</p> <p>21.Modda almashinuvi buzilishidan kelib chiqadigan ko'z kasalliklari.</p> <p>22.Zaharlanishlardan va kimyoviy moddalar ta'siridan kelib chiqadigan ko'z kasalliklari.</p> <p>23.Ko'z kasalliklarini davolashning zamonaviy jarrohlik usullari va oldini olish chora-tadbirlari.</p> <p>24.Ko'rish nervining asab kasalliklari.</p> <p>25.Ko'z kasalliklarini chaqiradigan asab tizimi va ichki yuqumsiz kasalliklari.</p>
3.	<p>V. Ilmiy amaliyot (stajirovka).</p> <p>Ilmiy amaliyot ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiy amaliyot (stajirovka) magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish, ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrlar eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash tarmoqlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot ishlari, taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> – ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi; – fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi; – amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi; – kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim. <p>Bunda ilmiy amaliyot (stajirovka)ga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida ham bajarishi Ko'z da tutiladi. Ushbu holatda stajirovkani tashkil etish tartib-qoidalarini amaldagi normativ-huquqiy hujjat (Nizom) asosida olib boriladi.</p>
4.	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakillanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Magistr bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • hayvonlar ko'zlarini davolash ishlarini klinika va ferma sharoitida tashkil qilish, ko'z kasalliklarini davolashda zamonaviy jarrohlik asbob uskunalaridan foydalanish va ishlash, ko'z kasalliklarini kelib chiqish sabablarini nazariy

	<p>asoslari, patogenezi, davolash va oldini olishni to'g'ri tashkil qilish, ko'z kasalliklaridan kelib chiqadigan iqtisodiy zarar va davolashni samaradorligini aniqlash <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi</i>;</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ko'zlari kasallangan hamda kasallikka gumon qilingan hayvonlarni umumiy va maxsus klinik, funksional, biokimyoviy, allergik va boshqa tekshirishlardan o'tkazish, ko'z kasalliklari paytida kasallikning birlamchi va ikkilamchi sabablarini aniqlash, to'g'ri tashxis qo'yish, Ko'z lari kasallangan hayvonlarga jarrohlik yordam ko'rsatishni to'g'ri tashkil qilishni, etiopatogenetik davolash hamda individual va guruhli oldini olish muolajalarini o'tkazish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; • ko'zlarda operatsiya o'tkazish jarayonida og'riqsizlantirish va narkoz usullarini qo'llash, operatsiyadan keyin kelib chiqadigan asoratlarni va ularni davolash va oldini olish, oftalmologiyada qo'llanadigan asbob uskunalarini qo'llash, Ko'zlari kasallangan hayvonlarga umumiy va maxsus klinik tekshirishlar yordamida to'g'ri tashhis qo'yish, Ko'zlari kasallangan hayvonlarga jarrohlik yordam ko'rsatishni to'g'ri tashkil qilish <i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i>;
5.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
6.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oralik nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish..</p>
7.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tashtemirov R.M. "Veterinariya oftalmologiyasining nazariy asoslari". Toshkent. "Sharq", 2015. 2. Тимофеев С.В., Филиппов Ю.И и др. «Общая хирургия животных» Москва, "Зоомедлит". 2007. 3. Dean A. Hendrickson and A. N. (Nickie) Baird. Turner and McIlwraith's Techniques in Large Animal Surgery, 4th Edition. © 2013 John Wiley & Sons, Inc. Published 2013 by John Wiley & Sons, Inc. 4. Christine Theoret, Jim Schumacher Equine Wound Management, US, This edition first published 2017 c 2017 by John Wiley & Sons, Inc. 5. Kirk N. Gelatt Veterinary Ophthalmology. This edition first published 2014 © 2014 by John Wiley & Sons, Inc. USA <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan millatlar tashkiloti bosh assambleyasi 75-